

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH



*Umarova Zaynura Inamjanovna*

*Xonobod shahar kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqqimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi texnika taraqqiyoti davrida esa biz ona tili va adabiyot darslarini ham axborot kommunikatsiya tizimlari bilan uyg'un holda tashkil etishimiz kerakligini taqozo etadi. Ulardan o'z vaqtida va o'rni foydalanilsa, bilim, ko'nikma, malaka asosida kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

- ▶ Barchamizga ma'lumki, **bilim**- o'quv jarayonida o'quvchiga beradigan axborot;
- ▶ **ko'nikma**- shu ma'lumotlardan samarali foydalana olish;
- ▶ **malaka**- olingan axborotlarni tanish yoki notanish amaliyotga tatbiq etish;
- ▶ **kompetensiya**- bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish layoqati.

O'quv tarbiyaviy jarayonda o'quvchining mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### 10-SINF O'QUVCHILARI O'QUV FAOLIYATI NATIJALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

#### NUTQIY KOMPETENSIYA

*(tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)*

**Tinglab tushunish**

tinglangan matnni tushuna oladi;

o‘qituvchi va suhbatdoshining nutqini tinglab tushuna oladi;

tezkor muloqot jarayonida suhbat mazmunini tushuna oladi;

so‘z, ibora va hikmatlar ma‘nosini tushunadi;

nutqiy malakani rivojlantirish uchun darslikda berilgan ma‘lu- motlarni tinglab tushunadi;

o‘qib eshittirilgan bayon matnini tushunib, uning mazmunini ang- laydi;

o‘zbek tilini o‘zbek xalqining asosiy milliy va madaniy qadriyat- laridan biri sifatida shaxsning intellektual, ijodiy qobiliyatlari va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdagi o‘rnini tushuna oladi;

o‘zbek tilining estetik ahamiyatini bilish; ona tiliga hurmat, undan g‘ururlanish; milliy madaniyat fenomeni sifatida o‘zbek tilining sofliğini saqlash zaruriyati; nutqni takomillashtirish.

### Gapirish:

- ▶ matn haqida tushunganlarini so‘zlab bera oladi;
- ▶ tezkor muloqot jarayonida o‘z nuqtayi nazarini ayta oladi;
- ▶ ma‘lumotlarni aniq dalillar bilan asoslagan holda o‘z fikrini bayon qila oladi;
- ▶ turli janrga doir matnlarni og‘zaki tahlil qila oladi;
- ▶ o‘z fikrini adabiy talaffuz me‘yorlariga rioya qilgan holda, ifodali, ravon va ta‘sirchan ifoda eta oladi.

### O‘qish:

- ▶ berilgan matnni ifodali, ravon o‘qiy oladi;
- ▶ matnni qismlarga bo‘lgan holda o‘qib, ularning mazmunini bog‘lay oladi;
- ▶ turli janrdagi matnlarni o‘qib, o‘zi tushungan mazmunni ting- lovchilarga gapirib bera oladi.

### Yozish:

- ▶ mavzuga doir tushunchalarni yozma bayon qila oladi;
- ▶ grammatik vositalarni almashtirib, jumlani qayta shakllantira oladi;
- ▶ jumla tuzishda tinish belgilarini tushungan holda to‘g‘ri qo‘llay oladi;
- ▶ tinglangan audiomatndagi asosiy ma‘lumotlarni unutmagan holda qayta yoza oladi;
- ▶ berilgan mavzu mohiyatini ochib beruvchi rejalar tuza oladi;
  - grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan izchil 20– 22 gapdan iborat matn yarata oladi;
  - tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 150 – 160 ta so‘zdan iborat diktant yoza oladi;

- matni nutq vaziyatiga qarab qisqartira oladi, shuningdek, kengaytira oladi;
- ish qog‘ozlari (tilxat, e‘lon, hisobot, ishonchnoma, tavsifnoma, bildirishnoma)ni yoza oladi.

### LINGVISTIK KOMPETENSIYA

(To‘g‘ri talaffuz, imlo, leksika, tinish belgilari)

- ▶ fikrini bayon qilish uchun orfoepiya va orfografiya me‘yorlariga rioya qiladi;
- ▶ so‘z va uning ma‘nolarini anglay oladi, matnda so‘zlardan o‘rinli foydalana oladi;
- ▶ bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar, so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosini farqlay oladi;
- ▶ iboralarning ma‘nosini tushunadi;
- ▶ lug‘at va uning turlarini farqlay oladi;
- ▶ og‘zaki va yozma nutqda grammatik vositalarni uslubiy jihatdan qo‘llanishini farqlaydi.

Ona tili va adabiyot darslarida axborot kommunikatsion tizimlaridan: internetdan, yozuvchi va shoirlar haqida ma‘lumot, tilshunoslikka va adabiyotga oid yangiliklar, multimediyadan, Pover Point dasturidan taqdimot yaratish va loyiha ishlari qilishda keng foydalanishimiz mumkin. “Grafikli organayzerlar” mavzuni faollashtirishda, mustahkamlashda, muammoni hal etishda, takrorlashda juda ham qulay usul hisoblanadi.

### ORGANAYZERLAR

**Grafikli organayzerlar(tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim**

Ma‘lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: Klasster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali.

Ma‘lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari:

Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish hamda rejalashtirish usul va

**“Nutq uslublari turlari”  
Mavzusidagi konseptual jadval**


<b>Nutq uslublari turlari</b>	<b>Qo'llanish doirasi</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>Janrlari</b>
<b>Rasmiy uslub</b>	Idora, davlat tashkilotlari, rasmiy xizmat, madaniy aloqalarda	Aniqlik, ixchamlik, tayyor nutqiy qurilmalar va qoliplardan foydalanish	Tavsifnoma, ariza, bayonnoma, dalolatnoma, buyruq, tushuntirish xati, rasmiy yozishmalar
<b>So'zlashuv uslubi</b>	Nutqiy muomala jarayonida	Erkinlik, sheva so'zlari va jargonlarning qo'llanilishi	<b>Adabiy so'zlashuv , oddiy so'zlashuv uslubi</b>
<b>Ilmiy uslub</b>	Ilmiy adabiyot, fan sohalarida	Maxsus atamalar, aniqlik, ta'riflash, dalillash, tahlil qilish, shartli belgilarning mavjudligi	Monografiya, ilmiy-ommabop asar, ma'ruza, risola, darslik...
<b>Badiiy uslub</b>	Badiiy asar, adabiyotlarda	Hissiy – estetik ta'sir, obrazli va tasviriy ifodalarning mavjudligi	Hikoya, roman, qissa, ertak, dostonlar va boshq.






Ona tili va adabiyot darslariga noan’anaiy darslarni olib kirish va uni ta’lim tizimiga singdirish, dars o’tishning yangi-yangi usullarini topish, Davlat ta’lim standartlarini bajarishga zamin yaratadi, inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish,

«Baliq skeleti» sxemasi - ularni tasdiqlovchi



“Nima uchun” sxemasi



o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy an'analarimizga, qadriyatlarimizga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili va adabiyot darslarining o'rni beqiyosdir.

### ADABIYOTLAR

1. Abduazizov, A. (1994). O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. O'qituvchi.
2. Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi.
3. Khodjamkulov, U. N., Makhmudov, K. S., & Shofkorov, A. M. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
4. Tojiyev, Yo. (1992). O'zbek tili morfemikasi. O'qituvchi.
5. Шофқоров, А. М. ПОВТОРЯЮЩИЕСЯ СЛОВА И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ВЫРАЖЕНИИ.
6. Шофқоров, А. М., & Ходжамқулов, У. Н. (2019). Bor" ning inkori va "Yo'q" ning tasdig'i haqida mulohazalar. *Til va adabiyot ta'limi*, (2), 25-26.
7. Шофқоров, А. М., & Ходжамқулов, У. Н. (2020). O'zbek tilida inkor shakllarining ma'no tovlanishlari. *Texnika oliy o'quv yurtlarida o'zbek va xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari*, 38-39.